

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

ZA‘FARON O‘SIMLIGI VA UNING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

Yaxshiboyeva Maftuna Xolmurat qizi

Termiz davlat pedagogika instituti ”Biologiya va uni o‘qitish kafedrası” o‘qituvchisi

e-mail: ymaftuna7777@gmail.com

Xolmamatov Nodirbek Normamat o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti Biologiya ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

e-mail: kholmamatovnodir16@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda dorivor o‘simliklar ichida ko‘p kasalliklarga davvo bo‘ladigan za‘faron o‘simligining tarqalishi, morfologiyasi va dorivorlik xususiyatlari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Za‘faron o‘simligi, dorivorlik, aldegid, keton, qizil oltin, antioksidant.

Аннотация: В статье представлены сведения о распространении, морфологии и лечебных свойствах шафрана, способного излечивать многие заболевания среди лекарственных растений.

Ключевые слова: кислотность шафрана, лекарственное средство, альдегид, кетон, красное золото, антиоксидант.

Annotation: this article provides information on the distribution, morphology and medicinal properties of the saffron plant, which is used to treat many diseases among medicinal plants.

Key words: Saffron acidity, medicine, aldehyde, ketone, red gold, antioxidant.

Bugungi kunda rivojlanib borayotgan dunyoda fan-texnika rivojlanishi bilan bir qatorda kasalliklar ham ko‘payib bormoqda. Kasalliklarning ko‘payishi albatta dori-darmonlarga ham ehtiyojni oshirmoqda. Respublikamizda farmaseftika sanoat ehtiyojlarini ta‘minlash va eksportbop dorivor o‘simliklar yetishtirishni ko‘paytirish maqsadida za‘faron plantatsiyalarini tashkil etishga alohida e‘tibor qaratilayotganligi ham za‘faron o‘simligining ahamiyatini belgilab beradi.

Za‘faron (*Crocus sativus*) - sapsarguldoshlarga mansub ko‘p yillik o‘tsimon tugunak piyozli o‘simlik. Yovvoyi holda uchramaydi. Hindiston, Pokiston, Xitoy, Janubiy Yevropa, Ozarbayjonda katta maydonlarda ekiladi. Fevral-iyul oylarida gullaydi, aprel-avgustda meva beradi. Tarkibida efir moyi bo‘lganligi uchun hidi juda o‘tkir va yoqimli. Tabobatda dori-darmon sifatida foydalaniladi. Shu boisdan dorivorlik xususiyati bo‘yicha *dorivor o‘simliklar sultoni* deyishadi. Za‘faron to‘g‘risida Ibn Sino shunday fikr bildirganlar: bu o‘simlik “burishtiruvchi va erituvchidir”. Bu o‘simlikning damlamasi ichilganda organizmdagi viruslarga qarshi kurashadi, immunitetni saqlaydi, tana haroratini bir me‘yorda saqlaydi, teri rangini yaxshilaydi, ko‘zni ravshan qiladi, sasishni oldini oladi, yurakni quvvatlantiradi, balg‘am ko‘chishini osonlashtiradi va nafas a‘zolarini kuchli qiladi. Za‘faron o‘rta asrlardan beri bahosi va qadri tushmay kelayotgan yagona ziravordir. O‘rta asrlarda bir qadoq ya‘ni 450 gr za‘faronni zotli arab chopqir otiga ayirboshlash mumkin bo‘lgan.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Bu ziravorning nomi deyarli hamma tillarda arabcha “sariq” ma’nosini beradigan “za’faron” so‘zidan olingan bo‘lib qadimda mazkur noyob o‘simliklardan bo‘yoqlash moddasi sifatida foydalanilganligidan dalolat beradi. Hozirgi kunda za’faron azaliy ahamiyatini yo‘qotib, asosan pazandalikda ishlatiladi va oltin bilan teng baholanadigan yagona ziravoridir. Yer yuzida bugungi kunda yiliga faqat uch yuz tonna za’faron yetishtiriladi. Sharqda ilgari bu o‘simlikni “qizil oltin” deb nomlashgan. Bu o‘simlikni qimmatbaholigiga ikkita sabab bor: Birinchisi, bu o‘simlikni yetishtirish juda mashaqqatli ish; ikkinchisi, xushbo‘yligi, ta’mi va dorivorlik xususiyati bo‘yicha za’faron ziravorlar orasida tengsizdir. Ma’lumki za’faron insoniyatga ziravor sifatida iste’mol qilinishi to‘rt ming yildan ko‘proq tarixga ega bo‘lib bo‘yoq sifatida Neolit davrida tog‘larda qoya toshlarga rasm chizishda ishlatilgan. Qadimgi Mesopotamiyada uni taomda ishlatilgan izlari arxeologlar tomonidan aniqlangan. Yozuvlarda u haqda birinchi eslatmalar shumer sivilizatsiya qoldiqlarida kuzatiladi. Eronda eramizdan avvalgi X asrda za’faron tolalarini qurbonlik o‘raladigan matolarni bo‘yashda ishlatilgan, undan shuningdek, kuchli tomizg‘i sifatida foydalanib attorlik mollari va lazzatli yog‘lar tayyorlashgan. Iskandar Zulqarnayn armiyasidagi askarlar jangdan keyin yaralanganlarni davolashda foydalanishgan. Qadimgi Ahdda (Tavratda) za’faron qurbonlik qilishda yordamchi vosita, bo‘yoqchilik va attorlik moddasi sifatida ishlatilgani bitilgan. Bundan tashqari qadimgi

Xitoy manbalarida shifobaxsh dori vositasi sifatida ishlatilgan, sharqda budda manzaralari kiyimlarni bo‘yashda ishlatishgan. Yevropada za’faronni ishlatgan boylar jamiyatda kiborlar tabaqasiga mansubligini ifodalagan. Rimda esa bu o‘simlik bo‘yoq attorlik modda sifatida ishlatilgan. Za’faron eng mazzali ziravor, sifatli tabiiy bo‘yoq moddasi va qimmatbaho attorlik vositasi hamma dardlarga davo bo‘luvchi moddadir. Qadimgi zamonlardan ma’lumki, u nodir va bemisl xususiyatga ega. U og‘riqni qoldiruvchi, quvonch va xursandchilik baxsh etuvchi, tushkunlikdan chiqaruvchi quvonch garmoni serotonin ishlab chiqarish xususiyatiga egadir. Shunday qilib, za’faron - inson doimiy iste’mol qilishga o‘rganib qolmaydigan, yengil psixotrop moddadir. Za’faron dorishunoslikda sanoatda keng ishlatiladi, u sharq tabobatining 300 dan ortiq dori-darmonlar tarkibiga kiradi. Uning damlamasi bilan qadimda kataraktani davolashgan, hozirgi kunda ham u ko‘zga tomiziladigan dorilar tarkibiga qo‘shiladi. Za’faron butun organizmdagi hujayralarni oziqlantiradi, terini silliqlashtiradi, rangni tiniqlashtiradi, xotira va aqliy faoliyatni yaxshilaydi, kayfiyatni ko‘taradi. Za’faron 100 dan ortiq xastaliklarni davolovchi shifobaxsh xossaga ega.

Za’faron me’yordan ko‘p iste’mol qilinsa sezgi organlarini qattiq zo‘riqishga olib keladi. Me’yordan ko‘p ovqatga qo‘shilsa organizmni zaharlashi mumkin. Mutaxassis maslahatisiz homilador ayollarga tinchlantiruvchi sifatida foydalanish tavsiya etilmaydi aks holda bu narsa homilani abort bo‘lishiga olib keladi.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Bu o‘simlik organizmda “antioksidant” vazifasini xam bajaradi, ya’ni moddalar almashinuvini yaxshilab zararli moddalarni chiqarib yuboradi. Za‘faron tarkibida “Ketonlar va aldegidlar” ustunlik qiladigan 28 ga yaqin uchuvchi va xushbo‘y birikmalar bo‘lib, uning ko‘rish sistemasiga ijobiy ta’sir qilishi aniqlangan. Yoshga bog‘liq buzilishlarni oldini oladi, ko‘rish sistemasidagi keskinliklarni, shikastlangan fotoretseptor hujayralarini qayta tiklaydi, ko‘zga tushuvchi chang zarralarini to‘xtatadi va ko‘zga tushgan pardaga qarshi foyda beradi. Keksalik yoshidagi insonlar doimiy za‘farondan qabul qilishi esa kataraktani oldini olib turadi.

Ziravorlar sultoni va dorivor o‘simliklar ko‘rki bo‘lgan za‘faron asrlar davomida insonlarga turli hastaliklarda yordam berib kelgan. Bugungi kunga kelib prezidentimiz tashabbusi bilan ushbu noyob o‘simlik kata-katta plantatsiyalarga ko‘chirib o‘tkazilmoqda va mamlakatimiz aholisi salomatligini tiklashda keng qo‘llanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 avgustdagi 114-sonli yig‘ilish bayonining “Respublikamizda za‘faron (shafran) plantatsiyalarini barpo etish, farmatsevtika sanoati ehtiyojlarini ta’minlash va eksportbop dorivor o‘simliklarni ko‘paytirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi EDO-03/1-421-son qarori.
- 2) Ahmedov O‘., Ergashev A., Abzalov A., Yo‘lchiyeva M., Mustafoulov D. Dorivor o‘simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya. Toshkent-2018. 226-bet.
- 3) Bekmurodov A.S., Yakhshiboyeva M.X. PHYTONEMATODES APPLE TREE (*Malus domestica L.*) OF SURKHANDARYA REGION OF UZBEKISTAN. International Scientific Research Journal 05.05.2022. 741-745-betlar.
- 4) Hayitova Sh.D. "Values on the background of nutrition on seeds in grains F1-F2 correlation of economic characteristics." *Journal of Universal Science Research* 1.10 (2023): 230-233.
- 5) Xolmatov X.X., Qosimov I.A. “Ruscha-Latincha-O‘zbekcha dorivor o‘simliklar lug‘ati” Toshkent Ibn Sino nomidagi nashriyot 1992-yil 123-bet
- 6) Avitsenna.uz
- 7) Biosfera.uz